


NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANISHI

*Manzirova Maftuna Muhiddinjon qizi**E-mail: murodjonmanzurov1234@gmail.com**Namangan Davlat universiteti talabasi*

Annotation. Maqolada O`zbekiston Respublikasi Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, bu sohada qilinishi kerak bo`lgan ishlar haqida so`z yuritilgan. Namangan shahrining tarixi, uning rivojlanish davri va hozirgi kungi holati tahlil qilingan. Namangan shahri turizm sektorining hozirgi holati va dolzarb masalalar o`rganilgan.

Kalit so`zlar: turizm atamasi, “Namak Kon” iborasi, rekonstruksiya, restovratsiya, YUNESKO, Agroturizm, Ekoturizm, Gastronomik turizm, Ekstremal turizm, Etnoturizm.

Namangan viloyati respublikamizning qadimgi maskanlaridan bo`lib, bu mahalliy aholining ibridoiy turmush tarzi haqida guvohlik beruvchi turli arxeologik topilmalar va me` moriy yodgorliklar shuningdek, bronza va tosh asrlariga tegishli yodgorliklar bilan namoyon bo`ladi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillik madaniyatiga taaluqli hududlar Chust shahrida topilgan. Shaharlar miloddan avvalgi 4-3 asrlarda iqtisodiyot va hunarmandchiligi rivojlangan Kushon podshohligining poytaxti edi. Miloddan avvalgi III asrda Sirdaryoning qirg`oqbo`yi mintaqasida ulkan qal`alardan iborat Shahriston-Axsikent yirik shahri qurilgan. 17-asrda shahar zilzila tufayli vayron bo`lib, aholisi Namanganga ko`chib kelgan va bu ajoyib shaharning rivojlanishiga yaxshi ta`sir ko`rsatgan. Namangan shahri o`z nomini “Namak Kon” iborasidan olgan bo`lib, fors tilida “tuz koni” degan ma`noni anglatadi. Arxeologlar eramizning boshlarida bu yerda joylashgan qadimiy qishloqlarning izlarini topishgan. Shaharni tuz koni sharafiga keyinroq nomlashdi, uning hududida ko`l joylashgan bo`lib, undan mahalliy aholi osh tuzini qazib olishardi. 1610-yilda Namangan shahar maqomiga ega bo`ldi, 10 yildan so`ng esa zilzila natijasida vayron bo`lgan Farg`ona vodiysining qadimgi markazi bo`lgan Axsikent shahridan odamlar bu yerga ko`chib o`tishgan. Namangan viloyatida Xo`ja Amin maqbarasi, Mavlon Buva majmuasi va boshqa shu kabi ko`plab tarixiy joylar va ziyyaratgohlar mavjud.

Namangan – bu Gullar shahri, shu bilan birga, Namangan viloyati o`z kasbining ustasi bo`lmish bog`bonlar va uzumchilar makonidir. Bugungi kunda Namangan shahri iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan yirik shahar bo`lib, uning asosiy yo`nalishlari pillachilik, paxtani qayta ishslash, vinochilik va kimyo sanoati hisoblanadi. Hunarmandchilik markazi bo`lgan Chust shahri nafaqat O`zbekistonda, balki chet mamlakatlarda ham pichoq ishlab chiqarish san`ati bilan mashhur.

“Gullar shahri “ bo`lmish Namangan o`zining tarixiy lazzati, shinam ko`chalari va eski binolari bilan ajralib turadi. Bu yerda bir qavatli an`anaviy uylar va g`ayrioddiy binolarni uchratishingiz mumkin.

Turizm – bu so`z bugungi kunda dunyo ahlini o`ziga ohangrabodek jalb etmoqda. Chunki turizm sohasi mamlakatlar iqtisodiyotida alohida o`rin tuta boshladi. Jumladan, yurtimizda ham ushbu sohani rivojlantirish bo`yicha keng ko`lamdagagi ishlar olib borilmoqda, turizm salohiyatini oshirish yuzasidan bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda. Natijada respublikamizning har bir hududida turizmni rivojlantirish bo`yicha yangi loyihalar, imkoniyatlar bo`y ko`rsatdi. Jumladan, Namangan shahrida mavjud bo`lgan turizm obyektlari bilan tanishib o`tadigan bo`lsak: Viloyatda mavjud turizm obyektlari soni 301 tani tashkil etadi. 24 ta ziyoratgoh, 242 ta madaniy me`ros obyekti, 152 ta arxeologik yodgorlik, 98 ta arxitektura yodgorligi, 22 ta istirohat bog`lari shular jumlasidandir. Bugungi kunda viloyatda 28 ta tur operator, 4 ta direksiya, 25 ta mehmonxona va 48 ta mehmon uyi (2013 o`rinli), jami 78 ta joylashtirish vositasi, 40 ta mikroavtobus, 6 ta gidtarjimon mahalliy va xorijiy fuqarolarga sayyohlik xizmatlari tashkil etilgan. 2020-yil davomida xorijiy va mahalliy turistlar uchun 5 ta turizm axborot markazi, 70 ta namunaviy sanitariya-gigiyena shaxobchasi, 40 ta turistik obyektga olib boruvchi yo`l ko`rsatgich belgilari va 80 ta turizm obyektida Wi-Fi hududlari tashkil qilindi.

2022-yilning yanvar-noyabr oylari davomida viloyatimizga jami 34091 nafar (shundan 4052 nafari xorijiy, 30039 nafari mahalliy) sayyoh tashrif buyurdi. Ushbu davrda turizm xizmatlar eksport hajmi 8.5 mln AQSh dollarini tashkil etgan.

2021- 2022 - yil respublika marshrutiga kiritish maqsadida viloyatdagi 25 ta madaniy me`ros obyektni ta`mirlash to`grisida taklif kiritilgan edi. Natijada Chortoq tumanidagi “Sulton Uvays Qaroniy” ziyoratgohi, To`raqo`rg`on tumanidagi “Axsikent ochiq osmon muzeyi”, Chust tumanidagi “Bibiona” ziyoratgohi, Pop tumanidagi “Hazrati Bob” ziyoratgohida qurilish va rekonstruksiya amalga oshirilib, foydalanishga topshirildi va bu maqsad uchun byudjet mablag`lari hisobidan 26.8 mlrd so`m sarflandi. Shu bilan birga, homiylik va byudjet mablag`lari hisobidan Namangan shahrida joylashgan “O`n bir Ahmad” va “Qodirxo`ja eshon uyi”, Uychi tumanidagi “Devona buva”, Chust tumanidagi “Buonomozor” va “Ayritom bobo”, Namangan tumanidagi “Xilvatxona” ziyoratgohlarida rekonstruksiya va restavratsiya-tiklash ishlari amalga oshirildi va foydalanishga topshirildi. 2021-yilda 16 ta madaniy me`ros obyektining infratuzilmasini yaxshilash bo`yicha loyihalar ishlab chiqilgan. Madaniyat vazirligi madaniy me`ros departamenti va Namangan davlat universiteti bilan hamkorlikda “Axsikent” va “Munchoqtepa” (Qadimgi Pop) arxeologik yodgorligini umumjahon YUNESKO ro`yxatiga kiritish uchun nomzodnomma tayyorlanmoqda.

Shuni ta`kidlash joizki, viloyat hududining o`ziga xosligidan kelib chiqib, Ekoturizm (tog`li hudud va daryo bo`yi turistik obyektlari), Agroturizm (baliqchilik

klasterlari, mevali bog`lar, yilqichilik), Gastronomik turizm (Chust osh markazi, mega palov), Ziyorat turizmi, Ekstremal turizm, Etnoturizm, Tibbiyot turizmi yo`nalishlarini ushbu hududda rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko`rishimiz mumkin.

Gastronomik turizmni yana-da rivojlantirish maqsadida Namangan shahrining markazida (“Afsonalar vodiysi” bog`ida) “Taste of Uzbekistan” gastronomic festivalini, Chust tumanida “Osh festivali”ni, Xalqaro velosiped kuniga bag`ishlab “Tungi velosayr” tadbirini tashkil etish rejalarini taklif qilingan.

“Afsonalar vodiysi” – viloyatning turizm “magniti” hisoblanadi. Umumiy qiymati 618 mlrd so`mlik 155 hektar maydonni egallagan majmuada ayni paytda 113 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan 16 turdag'i attraksionli tematik park, 2400 o`rinli amfiteatr, 7 xil suv attraksionlari va 16 ta basseynli akvapark, 2 ta zamonaviy sharshara va musiqali favvora, 3 ta restoran, 1800 o`rinli 2 ta avtoturargoh va 1 ta masjid tashkil etilgan. Bu turistik obyekt 6000 nafar sayyoohlар va mahalliy aholiga xizmat ko`rsatish imkoniyatiga ega.

Viloyatda turizmni rivojlantirish bo`yicha quyidagi takliflarni kiritishimiz mumkin. Chust tumanini turizm markaziga aylantirish loyihasi. Bunda “Mavlono Lutfiy” istirohat bog`ida xorijiy va mahalliy aholining turli bosh kiyimlarini o`zida jamlagan “Do`ppi muzeyi” tashkil qilish va Chust do`ppilarining savdosini yo`lga qo`yish, “Bibi ona” ziyoratgohi hamda “Varzik” mahallasidagi “Teshiktosh” va kuzatuv maydoniga ega qoyatoshlarga turpaketlar tashkil qilish, do`ppido`zlar va pichoqchi ustalar mahallalarini tumanning tashrif qog`ozni sifatida foydalanish, Chust tumanining do`ppido`zlik maktabi san`atini YUNEKSOning nomoddiy madaniy me`roslar ro`yxatiga kiritish bo`yicha takliflarini Namangan viloyati turizmini rivojlantirish mexanizmlari sifatida qo`llashimiz mumkin. Shuningdek, bu maskanda ichki turizmni rivojlantirishimiz uchun Shopping turizmni yo`lga qo`yishimiz zarur. Ushbu kiritilgan takliflarni ijrosini ta`minlash orqali biz kutilgan natijani olishimiz mumkin. Biz avvalo, ichki turizmni rivojlantira olsak, tashqi turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlarimiz kengayadi va shu orqali biz iqtisodiyotimizdagi turizm salmog`ini kengaytirishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar.

1. <https://uzbekistan.travel/uz/r/namangan-viloyati/>.
2. <https://lexs.uz>
3. <https://orginfo.uz>
4. <https://namstat.uz>